

INGLIZ VA QORAQALPOQ ERTAKLARIDA VAQT KONSEPTINING LEKSIK VA MADANIY TAHLILI

Ajibekova Gulsara Jengisbaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19853757>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va qoraqalpoq xalq ertaklarida vaqt konseptining leksik hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida vaqtning ertak matnlaridagi ifodalanish usullari, uning narrativ, semantik va madaniy funksiyalari o'rganildi. Xususan, qoraqalpoq ertaklari (“Abat batır”, “Qıran”) hamda ingliz ertaklari (“Cinderella”, “Snow White”, “Jack and the Beanstalk”) misolida vaqtning abstraktligi va mo'jizaviy xarakteri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikkala til tizimida ham vaqt ertakona muhitni yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, biroq qoraqalpoq ertaklarida uning madaniy va axloqiy mazmuni chuqurroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, vaqtning tabiiy birliklar orqali ifodalanishi xalqning an'anaviy dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: vaqt konsepti, ertak, lingvomadaniyat, qoraqalpoq ertaklari, ingliz ertaklari, leksik ifoda, narrativ struktura.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, vaqt konsepti ertak matnlarida faqat voqealar ketma-ketligini belgilovchi vosita emas, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shu bois ingliz va qoraqalpoq ertaklarida vaqtning ifodalanishini o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega [1, 267-280]. Ayniqsa, ertaklar mifologik tafakkur mahsuli bo'lganligi sababli, ularda vaqt real tarixiy kategoriya sifatida emas, balki ramziy va umumlashtirilgan tarzda aks etadi.

Birinchidan, qoraqalpoq xalq ertaklarida vaqtning boshlanish nuqtasi ko'pincha an'anaviy formulalar orqali ifodalanadi. Masalan, “Abat batır” ertagida voqea “Buringı ótken zamanda...” kabi ibora bilan boshlanadi. Bu esa aniq vaqtni emas, balki ertakona, mifologik o'tmishni bildiradi. Xuddi shuningdek, ingliz ertaklarida, masalan, “Cinderella”, “Snow White”, “Jack and the Beanstalk” kabi ertaklarda “Once upon a time” iborasi qo'llanilib, voqealar noaniq, umumiy vaqt doirasiga joylashtiriladi. Demak, ikkala til tizimida ham vaqtning boshlanishi aniq tarixiy davr bilan emas, balki ertakona muhit bilan bog'liq [3].

Bundan tashqari, qoraqalpoq ertaklarida vaqtning davomiyligi va ketma-ketligi ko'pincha tabiiy birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, “Abat batır” ertagida “Neshshe kúnler jol júrip...”, “Bir waqıtta...”, “Azanda...” kabi birliklar uchraydi. Bu birliklar vaqtni soat yoki yil bilan emas, balki kun, tun, tong kabi tabiiy jarayonlar orqali ifodalashni ko'rsatadi. Xuddi shunday holatni “Qıran” ertagida ham kuzatish mumkin, unda voqealar davomida vaqt “Bir kúnleri...”, “Tań atqansha...” kabi iboralar orqali beriladi. Shu bilan birga, ingliz ertaklarida vaqt ko'proq “one day”, “after a while”, “many years later” kabi birliklar orqali ifodalanadi, bu esa voqealarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatadi [2].

Shu bilan birga, ertaklarda vaqt qahramonning sinovdan o'tish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, “Abat batır” ertagida qahramonning yo'li uzoq vaqt davom etadi va bu “neshshe kúnler jol júrip” kabi ifodalar orqali beriladi. Bundan tashqari, shu ertakda mo'jizaviy vaqt birliklari ham uchraydi, masalan, “bir aqshamda bir qalamı saladı” yoki “jeti jıllıq jansızğa jan beredi” kabi iboralar vaqtning real emas, balki fantastik va ramziy xarakterga ega ekanligini

ko'rsatadi . Ingliz ertaklarida ham xuddi shunday, masalan, “Jack and the Beanstalk” ertagida voqealar qisqa vaqt ichida keskin o'zgaradi, yoki “Sleeping Beauty” ertagida vaqt yuz yillik uyqu orqali ifodalanadi. Bu esa vaqtning dramatik va badiiy effekt yaratish vositasi ekanligini ko'rsatadi [5].

Bundan tashqari, qoraqalpoq ertaklarida vaqtning madaniy mazmuni ham alohida e'tiborga loyiqdir. Masalan, “Abat batir” ertagida voqealar davomida yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash vaqt davomida rivojlanadi va oxir-oqibat yaxshilik g'alaba qiladi. Bu holat kitob annotatsiyasida ham umumiy tarzda ta'kidlanadi: “jaqsılıq hám jamanlıq ... qay waqıtta da qosılıp júrip...” . Demak, vaqt bu yerda axloqiy jarayon sifatida talqin qilinadi, ya'ni insonning sabr-toqati, jasorati va ezgulikka intilishi vaqt davomida sinovdan o'tadi [4].

Shuningdek, “Qiran” ertagida ham vaqt qahramonning ruhiy va jismoniy o'sishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qahramon uzoq safarlarga chiqadi, ko'plab sinovlardan o'tadi va bu jarayonlar vaqt orqali ifodalanadi. Shu jihatdan qaraganda, vaqt bu ertakda rivojlanish va yetilish kategoriyasi sifatida xizmat qiladi. Ingliz ertaklarida ham, masalan, “Cinderella” ertagida vaqt sabr va kutish bilan bog'liq bo'lib, oxir-oqibat ijobiy natijaga olib keladi.

Boshqa tomondan, ingliz ertaklarida vaqt ko'proq narrativ struktura elementi sifatida ishlatiladi, ya'ni voqeani boshlash, rivojlantirish va yakunlash uchun xizmat qiladi. Qoraqalpoq ertaklarida esa vaqtning madaniy yuklamasi kuchliroq bo'lib, u xalqning turmush tarzi, tabiat bilan uyg'unligi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Ayniqsa, vaqtning tong, kun va tun kabi tabiiy birliklar orqali ifodalanishi bu xalqning agrar hayot tarzi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va qoraqalpoq ertaklarida vaqt konsepti o'xshash funksional xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularning madaniy talqini farqlanadi. Qoraqalpoq ertaklarida vaqt ko'proq ramziy, siklik va axloqiy mazmunga ega bo'lsa, ingliz ertaklarida u asosan voqealar ketma-ketligini tashkil etuvchi narrativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, “Abat batir”, “Qiran”, “Cinderella”, “Snow White” kabi ertaklar misolida vaqt konsepti xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Askoldov, S. A. (1997). Concept and word. Russian literature. From the theory of layering to the structure of the text, 267-280.
2. Donoghue, D. (2014). Metaphor. Harvard University Press.
3. Fisher, J. (2008). Tolkien On Fairy-stories. Expanded edition.
4. Qaraqalpaq xalq ertekleri. – Nókis: «Qaraqalpaqstan» baspasi, 2019. – 428 bet.
5. Zipes, J. (2003). The Complete Fairy Tales of the Brothers Grimm All-New Third Edition. Bantam.